



**AXLOQ TUZATISH ISHLARI JAZOSINING JINOYAT-IJROIYA HUQUQIY
ASOSLARI**

X.R.Ergashev

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur tezisdagi axloq tuzatish ishlari jazosining jinoyat-ijroiya huquqiy asoslari keng yoritilgan. Unda ushbu jazoning mazmuni, ijro tartibi, probatsiya bo'linmasi, korxona va tashkilotlarning majburiyatlari, mahkumlarning huquqiy holati va jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganlik oqibatlari yuridik asosda tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Axloq tuzatish ishlari, jinoyat-ijroiya huquqi, probatsiya, jazoni ijro etish, mahkum, jazo muddati, ish haqi, ozodlikni cheklash*

Аннотация. *В данной тезисной работе подробно раскрыты уголовно-исполнительные основы наказания в виде исправительных работ. Рассматриваются содержание данного вида наказания, порядок его исполнения, обязанности подразделений пробации, предприятий и учреждений, правовой статус осужденных и последствия уклонения от отбывания наказания.*

Annotation. *This thesis outlines the criminal-executive legal foundations of the corrective labor punishment. It analyzes the essence of the punishment, execution procedure, responsibilities of probation departments, obligations of enterprises and institutions, the legal status of convicts, and the consequences of evading punishment.*

Axloq tuzatish ishlari – bu sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilishdan yengilroq tarzdagi jazo turi bo'lib, jinoyatchini mehnat faoliyati orqali ijtimoiy foydali yo'lga yo'naltirishga qaratilgan. Bu jazoning asosiy maqsadi – shaxsni tuzatish, mehnatga jalb etish orqali uni ijtimoiy muhitga moslashtirishdir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ushbu jazo ish haqining o'n foizidan o'ttiz foizigacha davlat daromadi hisobiga ushlab qolishni nazarda tutadi va bu jazo olti oydan uch yilgacha muddatga tayinladi.

Axloq tuzatish ishlari jazosi ushbu jazoga hukm qilingan shaxsning yashash hududida amalga oshiriladi va ichki ishlar organlari qoshidagi probatsiya bo'limi tomonidan nazorat qilinadi. Agar mahkum doimiy manzilga ega bo'lmasa, jazo qaror chiqarilgan hududda ijro etiladi. Mahkum mavjud ish joyida faoliyatini davom ettirishi yoki belgilangan muassasalarda ishlashi mumkinligi qonunda belgilab qo'yilgan, ammo yangi O'zbekistonda tadbirkorlikka va aholining daromadini ko'tarishga bo'lgan e'tibor tufayli o'zini o'zi band qilish tarzida rasmiy ish faoliyati yo'lga qo'yilgan, bu esa ularni o'z ish faoliyatidan ajralmagan holda jazoni o'tashi uchun shart-sharoit yaratib berishni talab qiladi. Shuningdek, respublikaning ko'plab tumanlarida o'z ish joyiga ega bo'lmagan mahkumlarning ish beruvchilar tomonidan ishga qabul qilishni rad etishi ham ayrim o'zgartirishlar kiritish zarurligini ko'rsatadi. Bu holatda axloq tuzatish ishlari jazosi



tayinlangan mahkumlarga ish beruvchilar uchun soliq imtiyozlari joriy qilish orqali masalani ijobiy hal qilish mumkin.

Probatsiya bo'limi jazoni ijro etish davomida nazorat va muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydi. U mahkumlarni hisobga oladi, jazoni o'tash shartlarini tushuntiradi, ularni ishga joylashtiradi, ishlab turgan tashkilotlar faoliyatini nazorat qiladi hamda zarurat tug'ilganda huquqiy choralar ko'radi.

Mahkum ishlayotgan tashkilotlar uning ish haqidan belgilangan miqdorda mablag'ni ushlab qolish va tegishli organlarga topshirish majburiyatiga egaligi hamda mahkumning mehnat faoliyatidagi har qanday o'zgarishlar haqida probatsiya organlarini xabardor qilishlari lozimligi qonunda aniq ko'rsatib o'tilgan.

Axloq tuzatish ishlari muddatini hisoblashda, mahkumning ishlagan kunlari va ushlab qolingani ish haqi miqdori inobatga olinadi. Agar belgilangan ish kunlari to'liq bajarilmasa, jazo muddati uzaytiriladi. Ba'zi hollarda ish vaqtining saqlanishi yoki mehnatga qodir emaslik holatlari hisobga olinmaydi. Agar mahkum jazoni o'tashdan qochsa yoki uni buzsa, probatsiya organi sudga murojaat qilib, qolgan muddatni ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirishni so'rashi mumkin. Bu tartib Jinoyat kodeksining maxsus moddolari asosida amalga oshiriladi.

Bu jazo turining ko'p qo'llanilishi unga bo'lgan yondashuvni o'zgartirish, hozirgi rivojlangan jamiyatga yanada moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Buning uchun ushbu jazo turining vaqt va foiz ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqish zarur, shuningdek, mazkur jazo turi mahkumlar qayta jinoyat sodir etishlarining oldini olishda yanada samarali bo'lishi uchun ozodlikni cheklash jazosi tayinlanganda beriladigan qo'shimcha majburiyatlarni axloq tuzatish ishlari jazosiga ham qo'shish zarur, shundagina ushbu jazo turi mahkumni axloq tuzatish hamda uning yangi jinoyat sodir etishining oldini olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. — Toshkent. 24-32-moddalar
2. KLAUS J. F. Handbook on Probation Services: Guidelines for Probation Practitioners and Managers. Rome: UNICRI, 1998. 120 p.
3. CANTON R. Probation and the philosophy of punishment // *Probation Journal*. 2018. Vol. 65, №3. P. 252–268.
4. Toshkent viloyati adliya boshqarmasi. Axloq tuzatish ishlari: mehnatga jalb qilish, muddatni hisoblash va cheklovlar. – Toshkent: Adliya vazirligi, 2024. 30 s
5. Орлов Владислав Николаевич. Проблемы назначения и исполнения исправительных работ. Ставрополь - 2000 45-48
6. Корнеева А.В. Исправительные работы без лишения свободы как вид уголовного наказания: Диссертация на соискание ученой степени канд. наук. - М., 2016. – 176 с.